

NAVOIYSHUNOS OLIMA SUYUMA G'ANIYEVA HAYOTI VA IJODIGA BIR
NAZAR

Arzimurodova Dilsevar

SamDU Kattaqo'rg'on filiali 2-bosqich talabasi

Annotatsiya *Suyima G'aniyeva taniqli navoiyshunos, sharqshunos olim bo'lib, uning asarlari nafaqat O'zbekiston, balki Rossiya, Turkiya, Eron, Tojikiston, Ozarbayjon ilmiy doiralarida ham yaxshi ma'lum. Mazkur maqolada olimaning oilasi, faoliyati, ijodi va hayoti bilan yaqindan tanishamiz. Butun bir hayotini Alisher Navoiyning ijodini o'rganishga sarf etgan matonatli o'zbek ayoli. Olimaning umr yo'llarini, qanday faoliyat olib borgani, nimalarga qiziqqanligi va ilmiy merosini tanishtiramiz.*

Kalit so'zlar: *„Majolis un-nafois“, „Navodir un-nihoya“, „Kalila va Dimna“, „Kohi Guliston“, mumtoz adabiyot, monografiya, nomzodlik dissertatsiyasi.*

Annotaziya *Suyuma Ganiyeva, eserleri sadace O'zbekistan'da deęil, Rusya, T'urkiye, İnan, Tacikistan ve Azerbaycan bilim evrelerinde de tanınan tanınmıř bir Navoi bilgini, Doęu bilginidir. T'um hayatını Alisher Navoi'nin alıřmalarını inceleyerek geiren azimli O'zbek kadını.*

Anahtar Kelimeler: *"Majolis un-nafois", "Navodir un-nihoya", "Kalila ve Dimna", "Kohi G'ulistan", klasik edebiyat, monografi, adaylık tezi.*

O'zbekiston qahramoni, navoiyshunos olimasi Suyuma G'aniyeva 1932-yil 20-fevralda Toshkent shahrida ishchilar oilasida tavallud topgan. Otasi G'aniyon Tursunov adbiyot va san'at shaydosi, onasi hazrat Navoiy va Mashrab ijodini mukammal bilgan ma'rifatli Soraxon aya Suyuma G'aniyevaning ijodiga va intilishlariga katta e'tibor qaratgan. 4-5 yoshlaridan qo'shiqlardan, she'rlardan so'z olib, ularni yodlashga harakat qilgan. A. Navoiy asrlaridan murakkab baytlarni aniq talaffuz qilishni o'rganadi. 1947-yilda, 15 yoshida, 7-sinfdaligidanoq hali maktabni bitirmasdan O'rta Osiyo davlat universiyeti sharq fakultetida eron-afg'on filologiyasi bo'yicha ta'lim oladi. Nomzodlik dissertatsiyasini A.N. Boldirev rahbarligida, Leningradda himoya qilayotganida 24-yoshda edi. Dissertatsiya mavzusi Navoiyning „Majolis un-nafoisning III va IV majlislarini ilmiy-tanqidiy matni va adabiy tahlili“ mavzusida edi. Olimaning dastlabgi asari „Alisher Navoiy“ nomli kitobi edi.

Olimaning o'zi yoshlik chog'larini eslab, shunday:, Adabiyotga qiziqish bolaligimdan boshlangan desam bir oz mubolag'a qilgan bo'laman. To'g'ri, yoshligimda xayolparastlik odatlarim bor edi. Ammo adabiyotga bo'lgan chinakam ixlos talabalik yillarida sezildi. O'qituvchilarimiz tavsiyasi bilan she'r yodlash va ifodali o'qish mashg'ulotlari menda she'riyatga, xususan, mumtoz adabiyotga havas uyg'otdi. Mumtoz adabiyotni anglaganim sari hayratim, qiziqishim ortaverdi va meni adabiyot butunlay rom etib qo'ydi.

Men 1956 -yili Leningrad Davlat universitetida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladim. O'shanda dissertatsiyamning avtoreferati kitob holida chop etildi. Ilk marta qo'limga olgan bu kitob men uchun juda qadri edi. Esimda, bu kitobimni aynan tug'ilgan kunimda qo'limga olgan edim. Bu mening o'z-o'zimga sovg'am edi.

1961 -yil Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida) kattagina so'zboshi bilan nashr etildi. Shunda Moskva, Leningrad, Eron, Afg'oniston, Turkiya olimlari bu kitobga juda katta qiziqish bildirdi va iloji bo'lsa yuborishimizni so'radilar. Bu kabi e'tiroflardan keyin menda shu asarni rus tiliga tarjima qilish orzusi paydo bo'ldi. Leningradlik olim, ilmiy ustozim Aleksandr Nikolaevich Boldirevga bu haqda xat yozdim. Ustoz bundan behad xursand bo'ldi va oq fotiha berdilar. Men zudlik bilan ishga kirishdim va qisqa fursatlarda tarjimani yakunladim. Bu tarjima 1970 -yilda Alisher Navoiyning rus tilidagi 10 tomligining 9-tomida nashr qilindi. Bu ham mening ijoddagi ulkan yutuqlarimdan biri edi. Keyinchalik "Majolis un-nafois" haqida o'zbek, rus, ingliz, fors, olmon, frantsuz tillarida ellikka yaqin maqolam chop etildi. Bir qator xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan xalqaro anjumanlarda ma'ruzalar qildim. Ammo bu asar haqidagi tadqiqotlarim keyinchalik ham davom etdi. "Majolis un-nafois"ning ikki forsiy tarjimasini 1945-yilda Eronda nashr qilingan. Britaniya muzeyida ham yana bir forsiy tarjimasini saqlanar ekan. Men buning mikrofilmini olishga muvaffaq bo'ldim. Hozir Madrasda va Tehronda saqlanayotgan yana ikki forsiy tarjimasiga erishish umididaman.

"Majolis un-nafois"ning matni Alisher Navoiy asarlarining 15 tomligida o'n ikkinchi tomdan, 20 tomligida izohlari bilan o'n uchinchi tomdan o'rin olgan. Yaqinda Respublikamizning 20 yilligiga sovg'a qilingan Navoiyning mukammal asarlari 10 jildga jamlanib, uning to'qqizinchi jildidan o'rin oldi. Bu xayrli ishlarda mening ham o'ziga xos ishtirokim borligidan behad mamnunman.

1962 -yilda "Navoiy hayoti va ijodi" deb nomlangan kitobim chiqdi. Keyinchalik, 1968- yilda bu kitob qayta ishlanib, to'ldirilgan holda chop etildi. Shu kunlarda esa yana yangi nashri kutilmoqda.

Umrim ne-ne ulug' zotlarning bebaho meroslarini varaqlash bilan o'tdi. Men bu bilan har qancha faxrlansam arziydi. Ijodiy faoliyatim davomida turli xil mavzularda besh yuzdan ortiq maqola e'lon qildim. O'nlab matn, yigirmaga yaqin tarjimalar va risolalarim chop etildi. Oddiy misol: "Kalila va Dimna" shu paytgacha olti marta nashr qilindi.

1991 -yil Eronning Tehron shahrida joylashgan "Kohi Guliston" muzeyida saqlanayotgan Navoiyning o'z qo'li bilan yozilgan "Navodir un-nihoya" devonini to'rt tilda: o'zbek, rus, ingliz va fors tillarida yozilgan so'z boshi bilan nashr etishga muvaffaq bo'ldim. Bu ish adabiy hayotimizda ham, shaxsiy hayotimda ham eng quvonchli voqea bo'ldi. Hazratning yoshlarimiz ma'naviyatini shakllantirishda muhim asar hisoblangan "Siroj ul-muslimin" 1990- yilda, hayoti so'nggida yozgan "Munojot"i 1991- yilda birinchi bo'lib sevimli jurnalimiz "Yoshlik"da nashr etilgani meni behad shod qilgan edi.

Adabiyotdagi yutuqlarimda talabalikda saboq bergan ustozlarimning hissasi beqiyos. Biz talabalar Sharqshunoslik institutida urushdan keyingi anchayin og'ir yillarda saboq oldik. U paytlarda institutlarda darsxonalar, stol-stullar yetishmas edi. Buning ustiga qishda auditoriyalarning sovuqligidan tuzuk o'qiy olmasdik. Yangi o'quv yili boshlanishi bilan talabalar paxta maydonlariga safarbar etilar edi. Ayni ilm o'rganadigan paytda uch oylab paxtazorlarda sarson-sargardon bo'lardik. Men bu gaplarni bugungi talaba yoshlarimiz yaratib qo'yilgan shart-sharoitlarning qadriga yetsin deb aytib qo'ymoqdaman. Darhaqiqat, o'rni kelganda bizlarga ta'lim-tarbiya bergan ulug' ustozlarimning nomlarini bir eslab qo'ysam: A.Hamroev, S.Mirzaev, B.Xolidov, N.A.Semenov, A.Mutallibov, N.F.Solodovnikova, V.D.Shiller. A.K.Arenda, I.F.Levitskiy, N.Xalfin, O.Umarov, G.A.Bondorevskiy va boshqalar... Bu zotlar o'z kasbining haqiqiy fidoyilari edilar.

Esimda, 1950 -yil Leningrad universitetidan kelgan Aleksandr Nikolaevich Boldirev institutimizning Sharq fakulteti 3 va 4-kurs talabalariga "Fors mumtoz adabiyoti"dan bir oy dars berdilar. Domlaning forsiy she'rlarni go'zal talaffuz bilan o'qishlari hammamizda katta taassurot qoldirdi. Jumladan, ustozning saboqlari mening ham ko'nglimda bir umr muhrlanib qoldi. Keyinchalik taqdir taqozosi bilan Leningrad universitetiga aspiranturaga borganimda shu domla ilmiy ishimga rahbar bo'ldilar. Dissertatsiya mavzusi "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matni va adabiy manba sifatida o'rganish masalasi edi. Bu mavzu Aleksandr Boldirevga ham juda ma'qul kelgan edi.

Xullas, men endi Navoiy asarlarini jiddiy mutolaa qilishga kirishdim. 1956-yilning boshlari edi. Domla jadallik bilan dissertatsiyani tugatishim zarurligini, Navoiy tug'ilgan kuni ilmiy ishim muhokamaga qo'yilishini aytdi. Men ishni oxiriga yetkazolmay qolishdan xavotirda ekanimni aytganimda, ustoz bir ajib gap aytdilar: "Bizlar har yili, hatto Leningradda dahshatli urush ketayotgan paytlarda ham Navoiyning tavallud kunini katta-katta anjumanlar, navoiyxonliklar bilan o'tkazib kelganmiz. Bu yil ham xuddi shunday bo'ladi. Sizning ilmiy ishingiz muhokamasi hazratning tug'ilgan kuniga go'zal sovg'a bo'ladi".

Bu gaplar mening g'ayratimga g'ayrat qo'shdi. Qolaversa, ishimni hazratning tavallud kunlari munosabati bilan himoyaga qo'ysam vaqtdan yutar ekanman. Chunki ilmiy ishlar muhokamasi navbatga ko'ra belgilanar ekan. Mening navbatim esa bir yarim yildan so'ng kelarkan. Natija shu bo'ldiki, 1956-yilning 22-fevral kuni akademik ilmiy kengashida nomzodlik ishimni himoya qildim. Opponentlarim akademik A.N.Kononov, dotsent G.Kostigovalar edi. O'sha kuni so'zga chiqqan olimlarning Navoiy siymosiga, uning ijodiga bo'lgan tavajjuh va hurmatlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Darhaqiqat, donishmandlar aytganidek, ilm, o'qish va o'rganish bizni boy o'tmishimizning ma'naviy vorislariga aylantiradi. Ilm, kitob ko'ngil shamchirog'idir. Bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. Farzandlar ta'lim-tarbiyasi faqat davlat ishi emas, bu oila uhdasi hamdir. Bolalarimiz o'z ajdodlari qoldirgan ma'naviy meroslarni bilishlari kerak. Buning uchun esa ular kitob bilan do'st bo'lishlari lozim bo'ladi. Zero, ahli ilmlar aytganidek: "Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko'taradi. Eng yaxshi orzu-istaklarni uyg'otadi, aqlni charxlaydi".

Yaratganga ming shukurki, butun umrim ilm ichida o'tmoqda. Ikki qiz, bir o'g'ilni tarbiyalab voyaga yetkazdim. Ularning biri bioximik, biri tish doktori, biri quruvchi bo'ldi. Olti nafar nevaramning uchtasi oliy ma'lumotli, magistraturani tugatdi. Yana olti nafar evaram bor. Bolalarim mening sohamga qiziqishmadi. Ammo ilmda hamjihatmiz. Farzandlarim – katta baxtim. Yana bir baxtim – yaxshi muhitda, yaxshi hamkasblar bilan ishladim. Bir jihatdan ular, qolaversa, ulug'lar ruhiyati madadkor bo'lib, shunday farovon kunlarga yetib keldim'' – deydi.

Bo'lg'usi olimi o'z mehnat faoliyatini 1956-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti kichik ilmiy xodimligidan boshladi. Keyinchalik, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti ilmiy kotibi, Toshkent davlat konservatoriyasida kafedra mudiri lavozimida

ishlab keldi. Suyima G'aniyev 1993- yildan boshlab umrining so'nggi yillariga qadar Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professori lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Olima adabiyotshunos, matnshunos, sharqshunos, manbashunos va tarjimon sifatida yaratgan 20 ta kitob va risolalar, 900 dan ortiq maqola va taqrizlar muallifi hisoblanadi. Suyima G'aniyev Alisher Navoiy asarlarini nashrga tayyorlagan manbashunos olim ham edi. U «Majolis un-nafois»ning ilmiy-tanqidiy matnini, «Navoiy dastxati» kitobini o'quvchilar hukmiga havola etgan. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami – 20 jildligida «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub», «Munshaot», «Vaqfiya», «Hamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardashen», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Nazm ul-javohin» kabi asarlarni izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlangan Alisher Navoiyning uzoq yillar davomida fanga noma'lum bo'lgan „Munojot“ asarini topdi va nashr etdi. O'zbek mumtoz adabiyoti va uning jahon madaniyatidagi o'rni to'g'risida fundamental tadqiqotlar muallifi. 14 ta monografiya, 350 dan ortiq ilmiy va nazariy maqolalar, 20 dan ortiq o'quv qo'llanmalar muallifi.

Kitoblari:

- „Alisher Navoiy hayoti va ijodi“,
- „Alisher Navoiy ijodidagi insonparvarlik g'oyalari“,
- „Navoiy g'azallarida zodagonlik motivlari“,
- „Navoiyning vasiyati“,
- „Navoiyning avtografi“..

1992- yili Beruniy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. O'sha yili “El-yurt hurmati” ordeni, 2008 -yili “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berildi. Tehron, Nishopur, Kirmon, Pekin, Anqara, Moskva, Sankt-Peterburg, Boku, Tbilisi, Yerevan, Olmaota, Bishkek, Ashxobod, Dushanbe shaharlarida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilgan. Besh yuzdan ortiq kitob, risola va maqolalar chop ettirgan. Ilmiy rahbarligi ostida to'qqiz kishi o'zining nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Buyuk Navoiyshunos olim Suyuma G'aniyeva 2018-yil 1-sentabrda olamdan o'tdilar. Ularni Toshkentdagi „Chig'atoy“ qabristoniga dafn qilishadi. Olimani taniganlarning aytishicha, Suyuma G'aniyeva boshqa vaqti eslamasalar ham, 9-fevral, hazrat Navoiyning tavallud kunlarini alohida bir bayram sifatida eslashlarini istar ekan. Uyining hamma joyida arabiy yozuvlar va Navoiyning rasmlari ilingan turar ekan. Eng katta orzusi Hirotga borib, Navoiy qabrlarini ziyorat qilib, Qur'on tilovat qilib kelish bo'lgan ekan. Ammo, hech Hirotga bora olmabdi. Shogirdlariga, Navoiy qabridan bir qism tuproq olib kelishlarini so'ragan ekan. Hatto, vasiyat sifatida o'zi olamdan o'tganidan keyin ham, u

tuproqni qabri ustiga qo'shib,dafn qilishini istaydi.Bu vasiyatni nabirasi Shirin ado etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,Suyuma G'aniyeva kabi olimalar juda kam.U kabi Navoiyni sevadigan,ijodini o'rganadigan olimalar dunyoga kamdan kam kelishadi.U butun umr Navoiy dastxati bilan yozilgan asrni izlaydi va topadi.Ayni mustaqillik arafasida Eronning Kohi Guliston muzeyidan Navoiyning o'z qo'li bilan yozilgan „Navodir un-nihoya'' asarining topilishi bu juda ham katta baxt edi.Olimaning shaxsan o'zi:„Bugunga qadar hech kimga nasib qilmagan, bu baxt menga nasib qildi '' – deb yozadi.Navoiyni u qadar ko'p va xo'p o'rgangan olimayo'q,bo'lmasa ham kerak.Boshqa navoishunos olimlar: „Agar,Suyuma G'aniyeva XV asrda yashaganda edi,bizga Navoiyning yana ko'plab asarlari to'laligicha yetib kelgan bo'lar edi''- deyishadi.Bu ta'rifdan ortiq maqtov bo'lmas kerak.Suyuma G'aniyeva Alisher Navoiyning sizga,bizga,yoshlarga qoldirgan vasiyati „Sad'di Iskandariy'' dostonining so'ngida berilgan deydi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranj-u havas aylama.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/suyima-ganieva-alisher-navoiy-nasrida-nazmning-orni.html>
2. <https://zarnews.uz/uz/avk0> Dilorom Salohiy, Samarqand davlat chet tillar instituti professori, filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi.
3. <https://kun.uz/uz/64420416>
4. <https://oyina.uz/uz/generation/96>